

# YANG O'ZBEKISTON: 2023

CONFERENCE.UZ

DAVRIYLIGI:  
2018-2023

## INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

DUNYO TARIXIDA KOSMOSGA  
UCHGAN BIRINCHI INSON



TOSHKENT SHAHAR, AMIR  
TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.

+998 97 420 88 81  
+998 94 404 00 00

[WWW.TAQIQT.uz](http://WWW.TAQIQT.uz)  
[WWW.CONFERENCES.UZ](http://WWW.CONFERENCES.UZ)



OKTYABR  
№57

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:  
ИННОВАЦИЯ, ФАН  
ВА ТАЪЛИМ  
10-ҚИСМ**

---

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:  
ИННОВАЦИИ, НАУКА  
И ОБРАЗОВАНИЕ  
ЧАСТЬ-10**

---

**NEW UZBEKISTAN:  
INNOVATION, SCIENCE  
AND EDUCATION  
PART-10**

**ТОШКЕНТ-2023**



“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 57-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 октябрь 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 32 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Ҳаракатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттига устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохигда Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажида Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўкув ишлари бўйича декан ўринбосари

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибай Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содикович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содикович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Проф. Хамидов Мухаммадхон Хамидович «ТИИМСХ»

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Сахифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов: tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ  
ИННОВАЦИЯЛАР**

**1. Dilafruz Abdullayeva Olimjonovna**

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТИДА БОЛАЛАРНИНГ НУТQINI  
РИВОЈЛАНТИРИШ ..... 7

**2. Muazzamxon Rafiqova Yusupjonovna**

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТИДА БОЛАЛАРНИ ТАРБИYALASH VA SAVODINI  
РИВОЈЛАНТИРИШ ..... 9

**3. Nayimova Dilnavoz Muzafarovna**

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALAR HAYOTIDA MUSIQANING  
TUTGAN O'RNI ..... 11

**5. Saidaxon Qodirova Nomonjon qizi**

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA NUTQ GRAMMATIKASI ..... 13

**6. Yarmatova Charosxon Abdusaxatovna**

МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА МЕТОДИСТНИНГ INNOVATSION  
FAOLIYATI ..... 15

**7. M.A.Asqarova**

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA XALQARO BAXOLASH DASTURI ASOSIDA  
SAVODXONLIKNI RIVOЈLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI ..... 17

**8. Sheraliyev Odiljon Shuxratjon o'g'li**

TALABALARDA DIGITAL KOMPETENSIYANI RIVOЈLANTIRISHNING AMALIY  
MEXANIZMI ..... 20



## ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

### МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ ТАШКИЛОТИДА БОЛАЛАРНИНГ НУТQINI РИВОЈЛАНТИРИШ

Dilafruz Abdullayeva Olimjonovna

Namangan viloyati, To’raqo’rg’on tumani  
Maktabgacha va Maktab ta’limi bo’limiga  
4-MTT tarbiyachisi +998932748380

**Annotatsiya:** Ushbu maqola maktabgacha ta’lim tashkilotida maktabgacha ta’lim yoshdagи bolalarbning nutqini rivojlantirishga kerakli bo’lgan ma’lumotlar berilgan bo’lib, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida metodik qo’llanma sifatida foydalanishlari mumkin.

**Kalitso’zlar:** Bolalar, tengdoshlari, nutq rivojlantirish, maktabgacha ta’lim, atrof muhit, muloqot, yangi metodlar, tengdoshlari.

Ta’lim tizimidagi islohotlar maktabgacha va maktab ta’limini birlashishi va bu ikki tashkilotning asosiy maqsadi kelajakka sog’lom va barkamol, yetuk avlodni yetkazib berishdir. Bolalar nutqini rivojlantirishda davlat tili to‘g ‘risidagi qonun bolalar nutqini shakllantirish, xususan, maktabgacha katta yoshdagи bolalar nutqini o‘stilish va bugungi kun pedagoglari ko‘pchiligi bolalar bog‘chalarida bolalarning nutqini o‘stirish shartlarini to‘g‘ri ta’kidlaydilar. Nutq madaniyatining kamchiliklari bola shaxsiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, bola tengdoshlari bilan muloqotda qo‘rs, odamovi, quntsiz bo‘lib qoladi. Bundan tashqari, bunday bolada tevarak-atrofnı o‘rganishga bo‘lgan qiziqish pasayadi, keyinchalik esa maktabda darslami o‘zlashtira olmaslikka sabab bo‘ladi. E’lon qilingan tadqiqot ishlarini umumlashtirib o‘rgangan holda ulaming ko‘pchiligida maktabgacha yoshdagи bolalarda nutq madaniyatini shakllantirishga oid vazifalami hal etishga nisbatan quyidagicha yagona yondashuv zaruriyatini aniqladik: 1.tovushlami to‘g‘ri talaffuz qilishni shakllantirish (bolada awalo nutq eshitish shakllanadi, talaffuzni u keyinroq egallaydi); 2. aniq talaffuz hosil qilish (so‘z va so‘z birikmalarini dona-dona hamda aniq talaffuz qilish); 3.so‘zni talaffuz qilganda urg‘uni to‘g‘ri qo‘yish ustida ishlash; 4.nutqning orfoepik jihatdan to‘g‘riliqi ustida ishlash (bu namunaviy adabiy talaffuz qoidalarining jami); 5. nutq sur’atini rivojlantirish; 6. nutqning ifodaliligin shakllantirish (nutqning tabiiy, erkin, ya’ni nutqning ongli ifodalanishi)8.nutqiy aloqa ko‘nikmalarini tarbiyalash;9. nutqiy eshitish ko‘nikmalarini shakllantirish; 10. nutq’iy nafas olishni shakllantirish; 11. o‘z fikrini erkin va izchil bayon etish malakasini shakllantirish. Maktabgacha yoshdagи bolalarda nutqiy aloqani tarbiyalashda tarbiyachi va ota-onalaming roli benihoya kattadir. Bolalar nutqi ustida ishlash jarayonida: a) tengdoshlari bilan suhbatda xushmuomala bo‘lishlariga; b) tabiiy ohangda gapirishlariga; d) so‘zlashganda ruhbatedoshining yuziga qarab turishlariga; e) qo‘llarini bamaylixotir holatda tutib turishiga e’tibor bermoq zarur. Bizga ma’lumki, ilm bilan tafakkur o‘rtasida uzviy aloqa mavjud, ular bir-birisiz yashanaydi. Manbalar tahlili shuni tasdiqlaydiki, maktabgacha katta yoshdagи bolalaming so‘z boyligini rejali, tarzda izchil kengaytirib borish zarur. Bolalar nutqini to‘g‘ri rivojlantirish uchun: a) nutq o‘stirishga doir tevarak-atrof obyektlarini oldindan ajratish va ular bilan tanishtirish; b) bolalaming eslab qolishi va to‘g‘ri talaffuz etishi, so‘zlashganda tez-tez foydalanishi, ahamiyatini tushunishi, zarur bo‘lgan so‘zlamning taxminiy ro‘yxatini tuzish lozim. Maktabgacha katta yoshdagи bolalaming faol lug‘atini boyitishda ulami tevarak-atrof bilan tanishtirish muhim vosita sanaladi, maktabgacha yoshdagи bolalar bilib oladigan tevarak-atrof obyektlarini tasniflash uchun asos sifatida qabul qilinishi mumkin. Shu bilan birga, bolalarda faol va passiv lug‘at boyligi asta-sekin ortib boradi, nutq rivojlanadi. Maktabgacha yoshdagи bola eshitadigari, ma’nosini tushunadigan, eslab qoladigan hamda qo‘llaydigan so‘zlamni asta-sekin tevarak-atrof bilan tanishish jarayonida ota-onalari, tengdoshlari



axborotlari orqali, shuningdek, o‘zining uncha ko‘p bo‘lmagan so‘z zaxirasiga tayanib bilib oladi. Bola o‘sib boradi, uning ehtiyojlari ko‘payadi, yangi istaklari, qiziqishlari paydo bo‘ladi. Ayniqsa, 5, 6 va 7 yoshdagi bolalar uchun lug‘atlar tuzish nihoyatda muhimdir. Shu bilan birga, nafaqat so‘zlaming miqdoriy tarkibini aniqlash (1500,2000 yoki 3000 – 4000 so‘z), balki ulami mavzular va hayotiy ahamiyati bo‘yicha ham hisobga olish muhimdir. Shunday qilib, maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rejali tarzda rivojlantirish uchun nafaqat tevarak-atrofni o‘rganish, obyektlami asosli ravishda tanlash, balki ayni paytda eng ahamiyatli so‘zlamni ulaming mavzu jihatdan xilma-xilligi bo‘yicha o‘rganishni ta’minlash ham dolzarb masaladir. Xulosa qilib aytganda maktabgacha ta’lim muassasalarida maktabgacha katta yoshdagi bolalar ayrim so‘zlamni o‘rganish bilan bir qatorda, iboralarni (osmonda yarim oy, oyoq yalang) ham talaffuz qilishni o‘rganishlari ularning bog‘lanishli nutqini o‘stirishga samarali ta’sir ko‘rsatar ekan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.O’zbekiston Respublikasining Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo’yilgan Davlat talablar(2018yil 4iyul) 2. G.R Toxtasinova, T.I. 2.Ormonova (2005). Bolalarbogchasida intellectual psixologik oyinlar T.: (4-5)
- 3.Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi. D.R. Babayeva Toshkent-2018



## МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ ТАШКИЛОТИДА БОЛАЛАРНИ ТАРБИYALASH VA SAVODINI RIVOJLANTIRISH

Muazzamxon Rafiqova Yusupjonovna

Namangan viloyati Norin tuman  
3-MTT tarbiyachisi +998976862979

**Annotatsiya:** Ushbu maqola maktabgacha ta’lim tashkilotida maktabgacha ta’lim yoshdagi bolalarbning tarbiyalash jarayonlari kerakli bo’lgan ma’lumotlar berilgan bo’lib, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida metodik qo’llanma sifatida foydalanishlari mumkin.

**Kalit so’zlar:** Bolalar, faoliyat, o’yin turlari, mehnat, tarbiyalash, yutuqlar, tarbiya, rivojlanish, qobiliyat, o’stirish.

Shiddat bilan rivojlanayotgan yurtimizda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar tarbiyasi bilan shug’illaniish va ularni dunyo qarashini o’stirish tarbiyachidan ota oana bilan hamkorlikda ishlash lozim. Bolalarning dunyo qarashini o’stirish va tarbiyalash jarayonlarida ko’rgazmali qurollar, o’yin, eng oddiy mehnat va o’quv kabi xilma-xil faoliyat turlari orqali ularning muomalasi shakllanadi. Bola u yoki bu faoliyatni o’zlashtirib, faollik ko’rsatadi, ayni paytda shu faoliyat bilan bogiq bilimlar, malaka, ko’nikmalami o’zlashtiradi, shu asosda unda xilma-xil qobiliyatlar va shaxs xususiyatlari shakllanadi. Bolaning faoliyatdagi mavqeい uni faqat tarbiya obyektiga emas, shu bilan birga tarbiya subyektiga ham aylantiradi. Bu bolani tarbiyalash va rivoj lantirishda faoliyatning yetakchilik rolini belgilaydi. Bolalaming rivojlanishi va tarbiyalanishining yosh bilan bog’liq davrlarida faoliyatning turli xillari yonmaydon bo’ladi va o’zaro ta’sir ko’rsatadi, lekin bunda ulaming roli bir xil bo’lmaydi: har bir bosqichda faoliyatning yetakchi turi ajratiladi, unda bolaning rivojlanishidagi asosiy yutuqlar namoyon bo’ladi. Har bir faoliyat ehtiyoj, sabablar, faoliyat maqsadi, mavzui, vositalari, buyumlar bilan amalga oshiriladigan harakatlar va nihoyat, natija bilan ajralib turadi. Ilmiy ma’lumotlaming dalolat berishicha, bola ulami darhol emas, balki asta-sekin va katta yoshdagi odamning rahbarligida egallaydi. Bola faoliyatining xilma-xilligi va boyligi, uni egallashdagi muvaffaqiyat oiladagi, maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiya va ta’lim sharoitlariga bog’liq, bo’ladi. Bolaning dastlabki yoshlaridan boshlab faoliyatning eng oddiy turlari uning shaxsiy qobiliyatlarini, xususiyatlarini va atrofdagi narsalarga munosabatini shakllantirishning asosi hisoblanadi. O’zlashtirilgan bilimlar va rivojlangan aqliy qobiliyatami bolalar xilma-xil o’yinlarda va mehnatda qo’llaydilar. Bulaming hammasi bola shaxsining rivojlanishiga ta’sir etadi, unda faoliyatning yangi mazmuniga qiziqishni shakllantiradi. Maktabgacha yosh davridagi ehtiyojlar, his-tuyg’ular, sabablar, maqsadlarni tarbiyalash va rivojlanish shu darajaga yetadiki, u bolaga maktabdagagi muntazam o’qishga Kichik muktab yoshida asosiy narsa o’qish bo’lib qoladi va uni bolalar ijtimoiy ahamiyatga molik faoliyat sifatida tushunadilar. Bolaning jamiyatdagi yangi mavqeい o’z xatti-harakatini va tengdoshlarining xatti-harakatini o’zgacha nuqtayi na-zardan – muktab o’quvchisi nuqtayi nazaridan baholashni shart qilib qo’yadi. Bola faollik, ijodkorlik ko’rsatib, kattalaming uning xulq-atvoriga va faoliyatiga qo’yayotgan tobora murakkablashib borayotgan talablarini bajarishga intiladi. Har bir faoliyat turining mazmuni va tuzilishining ijtimoiy-tarixiy tabiatini har bir yosh avlodga obyektiv ravishda berilgan bo’ladi. Odam shaxsining ijtimoiy tabiatini ana shunday shakllanadi. Tarbiyachining ichki dunyosi bilan kichkintoyning ichki tuyg’usi o’rtasida mustahkam o’zaro bog’liqlik mavjud, tarbiyachining madaniyat darajasi qanchalik yuqori bo’lsa, bolaning madaniyat darajasi shunchalik yuqori bo’ladi. Bunday jarayon davrida tarbiyachi ham, bola ham shakllanadi, bu esa hamma uchun hissiy qulaylik yaratadi, shuningdek, ota-onalarni ham ijod qilishga yo’naltiradi. Ijodiy rivojlaniruvchi muhitning samarasi kichkintoyning umumiylara qarashini taraqqiyotiga, ijodiy tafakkuriga, mustaqilligiga ta’sir ko’rsatuvchi shart-sharoitgagina bog’liq emas, balki tarbiyachining bola bilan bo’ladigan muloqotiga, vaziyatga, beriladigan topshiriqlarga, ulami berish usullariga ham bog’liq. Bolalarga ta’lim-tarbiya berish bir tartibda o’tmaydi. Tarbiyachi bolalaming taraqqiy etish dinamikasini kuzatib borishi, lozim bo’lsa, yordam ko’rsatishi lozim. Ammo bunda bolaning psixikasiga nisbatan yutuqlari darajasi dastur talablari bilan solishtirilmaydi. Tajribalar shuni ko’rsatadiki, yuqorida ko’rsatilgan shart-sharoitlarda psixikasi sog’lom bola sezilarli darajada an’anaviy davlat ta’lim standartlaridan o’zib ketadi, rivojlanishida nuqsoni bo’lgan bolalar esa o’z yoshlariga



mos yetarlicha bilim va malakalar oladilar. Yuqori darajada olinadigan bilimlar darajasi har bir bolaning individual imkoniyatlariga bog'liq. Ijodiy-rivojlantiruvchi muhitni to'g'ri tashkil etish bola shaxsining har tomonlama yetukligi: mustaqil, maqsadga intiluvchan, ishni to'g'ri rejalaشتира olish qobiliyatlarini takomillashtiradi. Bunday vaziyat bolani to'g'ri anglab harakat qilishga о'rgatadi. Tarbiyachilar bolalaming o'xshamaydigan xislatlarini qadrlashlari, o'ziga xos individual bo'lishlarini hurmat qilishlari lozim. Bolani majburlamang, bolaning erkin faoliyat yuritishi uchun imkoniyat yaratib bering.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. D.R. Babayeva Toshkent-2018.
- 2.Ormonova (2005). Bolalarbogchasiда intellectual psixologik oyinlar T.: (4-5)
3. O'zbekiston Respublikasining Ilk va mактабгача yoshdagи bolalarning rivojlanishiga qo'yilgan Davlat talablar(2018yil 4iyul) 2. G.R Toxtasinova, T.I.



## МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALAR HAYOTIDA MUSIQANING TUTGAN О’РНИ

Nayimova Dilnavoz Muzaferovna  
Navoiy viloyati Navbahor tumani  
4-DMTT musiqa rahbari

**Tayanch so’zlar:** MTT, musiqa, musiqa rahbari, musiqiy madaniyat.

**Annotatsiya:** ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida musiqaning tutgan o’rni, musiqa mashg’ulotlarining ahamiyati haqida nazariy ma’lumotlar keltirilgan.

**Musiqiy tarbiya** – bu musiqachi tarbiyasi emas, balki inson tarbiyasidir.  
V.A.Suxomlinskiy

Hozirda yosh avlodni tarbiyalashda san’at muhim o’rin tutadi. San’at insonparvarlik hissiyotini o’stirishda yordam berib, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda yoshlik chog’idan idrok etish, his etish, turmush va san’atdagi go’zallikni tushunish ishtiyoqi tarbiyalanadi va bu kabi go’zallikni yaratishga intilish kuchayadi. Bolaning badiiy faoliyatga bo’lgan qiziqishi ortadi. Bolalar bilan musiqali ish olib borish ayniqsa katta ahamiyat kasb etadi. Omma orasida musiqali targ’ibot olib bormay turib, to’laqonli natijalarga erishib bo’lmaydi. Musiqiy tarbiya bolalarda erta yoshdan boshlanishi kerak. Musiqa bola qalbida kuchli emotsiyonal tuyg’uni uyg’otadi. Musiqa yordamida uning badiiy idroki o’sib, hissiyotini yanada boyitib boradi. Bolalarda musiqiy idrokini rivojlantirmay ularning musiqaga mehr-muhabbatini yetarli darajada qiziqtirmay turib, har tomonlama jismoniy, ma’naviy boy va boshqa sifatlarni tarbiyalab bo’lmaydi. Hozirgi kun talabi maktabgacha ta’lim tashkilotlari oldiga musiqiy-estetik tarbiya berish borasida aniq vazifalarni qo’yadi:

- san’at va madaniyatga qiziqishni namoyon qilish;
- estetik did va hissiyotni shakllantirish;
- hayotda go’zallik tushunchasini to’liqligicha anglashni o’rgatish;
- bolalarga badiiy ijodkorlikni shakllantirish;
- bolalarda go’zallikni o’z hayotlariga, o’z faoliyatlariga olib kirishni o’rgatish san’atning muayyan turini afzal ko’rishini mustaqil ravishda ifodalaydi.

Oilada, bog’chada, maktabda musiqa mashg’ulotlarini maqsadga muvofiq tarzda uyushtirish, yosh avlodning ichki dunyosini boyitish va san’atni to’g’ri tushunishdagi samarali yo’ldir. Musiqa inson his-tuyg’ularini, orzu-umidlarini, xohish-istiklarini o’ziga xos badiiy tilda ifoda etadi va kishining his-tuyg’ulariga faol ta’sir etadi. Musiqa ham fan, ham san’atdir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida musiqa kunning deyarli barcha qismida, bolalar faoliyatidan ajralmagan holatda olib boriladi.

**Ertalabki qabul.** Bu vaqtida musiqadan foydalinish ancha samara beradi. Chunki ko’p holatlarda bolalar bog’chaga kelishni yoqtirmaydilar ammo erta tongdan yangrayotgan ajoyib kuy va qo’shiqlar ularni bu injiqliklarini yengib o’tishga, ularni chalg’itishga yordam beradi.

**Musiqa mashg’ulotlari.** Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida musiqa mashg’ulotlari musiqa rahbari tomonidan tashkil qilinadi. Turli yosh guruhlarida musiqa mashg’uloti deyarli kunning birinchi qismida bo’lib o’tadi. Musiqa mashg’ulotlarida bolalar kuylashni, raqsga tushishni o’rganadilar. O’zbek milliy cholq’ulari haqida boshlang’ich bilimlarga ega bo’ladilar.

**Bayram ertaliklari.** MTTda bayramlarni o’tkazishni musiqasiz tasavvur ham qilib bo’lmaydi. Bayram ertaliklarini tashkil qilish bolalar uchun ham juda zavqli jarayon hisoblanadi. Bolalar bayram ertaliklarida turli xil millat hamda o’zbek qo’shiqlariga raqsga tushishadi, musiqiy sahna ko’rinishlari tayyorlashadi. Shu jarayonlarda bolalar ijtimoiy hayotga, muktab hayotiga tayyorlanib boradilar.

**Sayr jarayonida.** Bolalar bilan tabiat qo’yniga ekskursiya tashkil etilganda magnitafonlarni olishni unutmaslik kerak. Toza havoda musiqa eshitish, raqsga tushish ularning kayfiyatini ko’taradi. Sayr jarayoni qiziqarli bo’lishini kafolatlaydi.

**Uxlash davomida.** Yoshligida Alla eshitmagan bola bo’lmasa kerak. Alla bola ruhiyatini tinchlantiradi va yaxshi orom olishga yordam beradi. Ayniqsa u jonli va sokin aytilsa. Kichik yoshdagi bolalarning dam olish soatlardida alladan foydalinish yaxshi samara beradi.

Ko’rib turganimizdek musiqaning yosh avlod ta’lim-tarbiyasidagi o’rni kattadir. Musiqa insonni



ezgulikka chorlaydi. Musiqaning kuch-qudrati shundaki, u shodlanish, qayg'urish, xayol surish, bardamlik, jasurlik, tushkunlik va shunga o'xshash inson ruhiy holatlarini xususiy va umumiy tarzda o'zaro bog'liqlikda, bir-biriga singib ketishida namoyish qila oladi.

Xulosa o'rnila Asafevning «...musiqa - bu ham san'at, ham fan, ham til, ham o'yin» – degan so'zlarini eslash maqsadga muvofiqdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.“Maktabgacha pedagogika” darslik. F.Qodirova, Sh. Toshpo'latovna, N. Qayumovna, M. A'zamovna “Tafakkur nashriyoti” Toshkent -2019
2. “Ilk qadam” Davlat o'quv dasturi Toshkent 2022y
- 3.Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi. Dildora Soipova. O'quv – metodik qo'llanma. Toshkent 2009



## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA NUTQ GRAMMATIKASI

Saidaxon Qodirova Nomonjon qizi

Namangan viloyati, Uchqo'rg'on tumani

Maktabgacha va Maktab ta'limi bo'limiga

34-MTT tarbiyachisi +998905554525

saidagmail.@com

**Annotatsiya:** Ushbu maqola maktabgacha ta'lim tashkilotida maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarbga ta'lim berishda nutq grammatikasi va uning o'rni haqida ma'lumotlar berilgan va ushbu maqola maktabgacha ta'lim tashkilotida ishlovchi tarbiyachilarga metodik qo'llanma sifatida foydalanishlari mumkin.

**Kalit so'zlar:** Grammatik nutq, psixologik rivojlanish, maktabgacha yoshdagi, morfologiya, shakllantirish, kelishiklar, bolalar.

Bugungi taraqiy etayotgan Yangi O'zbekiston diyorida bolalarning ta'lim tarbiya olioshlari va ularga bo'lgan e'tibor nafaqat yurtboshimiz qolaversa har bir pdagogning oldiga qo'ygan eng buyik maqsadlaridan biridir. Bola tilining grammatik tizimini o'z vaqtida shakllantirish - uni to'laqonli nutqiy va umumiyligi psixologik rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi. Tilning grammatik tizimini bola predmetli harakatlari o'zlashtirish bilan uzviy bog'liqlikda bilishni rivojlanish asosida egallaydi. Maktabgacha yoshdagi bola nutqining grammatik tizimini shakllaatirish morfologiya, sintaksis (oddiy va qo'shma gaplami tuzish) ustidagi ishlami o'z ichiga oladi. Bolalarning grammatik rivojlanishi boshqarishni pedagog eng avvalo ham bolaning o'zi bilan (dialog shaklida), ham boshqa bolalar bilan birligida muloqot faoliyati vositasida amalga oshirishi lozim. Bolalarda grammatik tizimni - sintaksis, morfologiya, so'z hosil qilishni shakllantirish o'zining alohida xususiyatlariga ega bo'lib, ularni rivojlanish uchun pedagog turli vositalami qo'llashi darkor. Morfologiya va so'z hosil qilishni o'zlashtirish uchun rag'batlantiruvchi til o'yinlari; sintaksisni rivojlanish uchun esa, keng fikr bildirish uchun motivatsiyani yaratish muhim. Ma'lumki, bolalar o'z iqtidoriga qarab turli darajada rivojlanadi va o'z navbatida pedagogning rahbarligi ham bosqichli xususiyatga ega bo'ladi. Bola hayotining beshinchi yilida pedagog rag'batlantirishga (gap so'z hosil qilish va so'z ijodkorligi xususida bormoqda); oltinchi yilda - gap tarkibini eng oddiy tahlil qilish, nutqning grammatik to'g' shakllantirishga (so'z o'zgartirishda); yettinchi yilda - hosila so'zlar o'rtasidagi rasmiy-semantic munosabatlarni oddiy tahlil qilishga, nutqiy ijodkorlikka, murakkab sintaktik tuzilmalami ixtiyoriy tuzishga alohida e'tibor berishi lozim. Didaktik o'yinlar va grammatik mazmundagi mashqlar bolalaming tilga oid o'yinlarini, ularning grammatik sohasidagi faolligini rag'batlantirishning muhim vositasidir. Pedagog bolalarga so'z birikmasini o'ylab ko'rish, so'ngra gapda so'zlamni bir-biri bilan to'g'ri bog'lash qobiliyatini o'rgatishi zarur. Bolalar fikrlarida murakkab sintaktik tuzilmalami shakllantirishni "yoyma nutq vaziyati" da, ya'ni bola matnni aytib turadigan, katta yoshli kishi esa, uni yozib boradigan vaziyatda amalga oshirish tavsiya etiladi. Bolaga bir turdag'i tuzilmalardan foydalanmagan holda so'zlamning to'g'ri tartibini qo'llashni o'rganishda yordam beradigan mashqlarga alohida e'tibomi qaratish zarur. Muhimi, bolada gap tarkibi haqida va har xil turdag'i gaplarda leksikadan to'g'ri foydalanish haqida oddiy tasavvurlar shakllansin. Buning uchun bolalarga gapda so'zlamni biriktirishning turli usullarini, so'zlar o'rtasidagi ayrim mazmunli va grammatik bog'liqliklardan foydalanishni hamda gapni intonatsion jihatdan rasmiylashtirishni o'rgatishi zarur. Bola tilining grammatik tizimini shakllantirish uning nutqi rivojlanishining umumiyligi oqimida ro'y berishi lozim; pedagogik rahbarlik shakllari va metodlari umumiyligi nutqiy rivojlanishning bosqichma-bosqich xususiyatga egaligini, eng awalo dialog va monologni, so'zgacha bo'lgan mazmunli-semantic tizimdan vaziyatga oid ixtiyoriy iborali nutqqa o'tish (keyinchalik dialog va monolog rivojlanadi), bolalaming nutqiy havaskorligi sohasi sifatida tengdoshlar bilan muloqotning dialogik shakllarini o'zlashtirishni hisobga olishi lozim. Nutqning grammatik to'g'riliqiga intilish ko'proq yetti yoshli bolalarga xosdir. Besh yoshli bolakay hali ham grammatik shakllar ustida zavq bilan mashq qiladi va aynan mana shu so'z bilan mashqlar kelajakda grammatik jihatdan to'g'ri ifodalangan nutq uchun poydevor yaratadi. Bolalarning nutqida oddiy gaplar ko'pchilikni tashkil qiladi. Ba'zan "esa", "va" kabi bog'lovchilar ishtirokida tuzilgan va ba'zan esa ularsiz bog'langan qo'shma



gaplar ham uchrab turadi. Hikoya qilib berishda so‘z birikmalarini tuzishda xatoliklarga yo‘l qo‘yilishi kuzatildi.

- eganing kesim bilan noto‘g‘ri bog‘lanishi: keldi quyon;
- aniqlovchining aniqlanuvchi so‘z bilan noto‘g‘ri bog‘lanishi: uchradi **ayiq**, uchradi **tulki**;

- kelishikda va kelishik-gap boshqaruvidagi xatoliklar: sayrga ayiq bilan chiqdik. Bolalar fikrlarining tahlili shuni ko’rsattidi, ular nutqida aniq ma’noli otlar ustunlik qiladi. Nutqni otlar bilan boyitish quyidagi sharoitlar ta’sirida ro‘y beradi: bola o‘zi uchun qandaydir ahamiyatga ega bo‘lgan narsalaminggina nomlarini o‘zlashtirib olmoqda; unga tanish narsalar va shaxslar ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1.O’zbekiston Respublikasining Ilk va maktabgacha yoshdagি bolalarning rivojlanishiga qo‘yilgan Davlat talablar(2018yil 4iyul) 2. G.R Toxtasinova, T.I.

2.Ormonova (2005). Bolalarbogchasida intellectual psixologik oyinlar T.: (4-5)

3.Nutq o’strish nazariyasi va metodikasi. D.R. Babayeva Toshkent-2018



## МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА МЕТОДИСТНИНГ INNOVATSION FAOLIYATI

**Yarmatova Charosxon Abdusaxatovna.**  
Navoiy viloyati Navbahor tumani  
4-DMTT metodisti

**Tayanch so'zlar:** MTT, metodist, ta'lim-tarbiya, innovatsiya

**Annotatsiya:** ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida metodistning faoliyati, kreativligi, ta'lim samaradorligini oshirishdagi roli haqida nazariy ma'lumotlar va tavsiyalar berib o'tilgan.

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi. MTTlarda ta'lim-tarbiya jarayoni metodistlar tomonidan tashkil etiladi. Metodistlarga davlat tomonidan bir qancha talablar qo'yilgan bo'lib ularga:

- o'z yo'nalishi bo'yicha kamida bakalavr darajasidagi oliy ma'lumot;
- xorijiy tillardan birining boshlang'ich bosqichini va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalinishni bilishi;
- uch yildan kam bo'limgan pedagogik ish stoji bo'lishi ko'p holatda talab etiladi. MTT metodisti davlat talablaridan tashqari shaxsiy sifatlarga va liderlik qobiliyatiga ham ega bo'lishi kerak.

Metodist maktabgacha ta'lim tashkiloti jamoasi o'quv-tarbiyaviy faoliyatiga metodik rahbarlik qilishi; maktabgacha ta'lim tashkilotlarida metodik ishini tashkil qilish, bolalarni tarbiyalash va o'qitish bo'yicha yo'rqnoma-metodik materiallarni umumlashtirish; ilg'or tajribalarni o'rganib, tarbiyachilar va tibbiy hamshiralarni orasida tajriba almashish ishlarini tashkil qilish, tarbiyachilar uchun ularga amaliy yordam berish maqsadida maslahatlar o'tkazish; muomila madaniyatiga e'tiborli bo'lish, jamoada sog'lom muhitni yaratish uchun ham xizmat qilishi kerak.

Bu vazifalarni bajarish orqali metodist tashkilotda ta'lim-tarbiya jarayonini izga soladi ammo jamoada hurmat qozonish, lider bo'lish uchun bular kamlik qiladi. MTTmetodisti hozirgi kunda zamon bilan hamnafas bo'lishi, axborot texnologiyalardan foydalana olishi, kreativ bo'lishi ya'ni har bir narsaga ijodiy yondashishi va yangilik yarata olishi kerak. Quyida MTT metodistining innovatsion faoliyatiga bir necha misollar keltirib o'tamiz.

### **MTTda pedagog xodimlar orasida monitoring tashkil qilish**

Bu jarayonda metodist pedagog xodimlarga berilgan topshiqlarni nazoratga olishi, ularni baholab borishi kerak bo'ladi. Pedagoglarni ishdagi faolligi, bolalar bilan ishlash qibiliyatiga, yaratuvchanligi, muomila madaniyatiga alohida e'tibor berishi kerak. Oy oxirida natijalar tahlil qilinadi. Monitoring natijalari yaxshi bo'lgan pedagoglarni rag'batlantirish va ularning ish tajribalarini boshqa pedagoglarga tanishtirib o'tish, monitoring natijalarida past bo'lgan pedagoglarga amaliy yordam berish borishi kerak bo'ladi. Pedagoglar orasida ta'lim jarayonini to'g'ri baholab borish orqali metodist o'quv ishlarida samaradorlikka erishadi hamda jamoada o'z o'rnini topib boradi.

### **Seminar-treninglar tashki qilish**

MTT metodisti haftada biror kunni belgilab pedagog xodimlar bilan seminar- treninglar tashkil qilib borishi bunda hozirgi zamon ta'lim yangiliklari, bu boradagi xorijiy tajribalar, sohadagi yangi qonun qaror va farmonlar bilan pedagoglarni tanishtirib borishi kerak. Bu jarayonda pedagoglar bir-biri bilan fikr almashishadi ish jarayoniga oid yangiliklardan xabardor bo'lib boradilar.

### **Pedagog xodimlar orasida turli tanlovlardan tashkil qilish.**

Har bir xodim lider bo'lishni, o'zining qaysidir qobiliyatlarini bilan ajralib turishni xohlaydi. Ularni yashirin qobiliyatlarini ommaga ko'rsatishda metodistning roli katta. Metodist ta'lim-tarbiya jarayonidan kelib chiqib turli tanlovlarni tashkil qilsa bo'ladi. Buning uchun metodist birinchi navbatda tashkilotda ko'p uchraydigan muammolarga yechim bo'la oladigan shartlar topishi va shunga asosan tanlov nizomini ishlab chiqishi, shartlarini batafsil yoritishi kerak bo'ladi. Bunday tanlovlarga ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan: eng yaxshi mashg'ulot ishlanmasi, kreativ ta'limiy o'yinlar, eng yaxshi qo'l mehnati tanlovlarni o'tkazish. Bu kabi tanlovlarni tashkil etish orqali yangi qobiliyatlarini kashf etish mumkin.

Uslubchi jamoani boshqarishda har doim o'zi shaxsiy namuna bo'lishi lozim, ya'ni u barcha



ishlarni oldida, boshida bo‘lib yetakchilik qilishi, ta’lim jarayoniga yangilik kirita olishi, jamoada sog’lom muhitni yarata olishi, tarbiyalanuvchilar yaxshi ta’lim-tarbiya olishlari uchun metodik ishlarni to’g’ri rejallashtirishi, jamoa a’zosining har bir mehnatini qadrlay olishi kera bo’ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.“Maktabgacha pedagogika” darslik. F.Qodirova, Sh. Toshpo’latovna, N. Qayumovna, M. A’zamovna “Tafakkur nashriyoti” Toshkent -2019
2. “Ilk qadam” Davlat o’quv dasturi Toshkent 2022y
3. Liderlar kitobi. Otabek Hasanov. Muharrir nashriyoti. Toshkent 2020



## BOSHLANG'ICH TA'LIMDA XALQARO BAXOLASH DASTURI ASOSIDA SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

M.A.Asqarova

Tadqiqotchi

Telefon:+998939424255

askarovamanzura17@gmail.com

**Annotatsiya:** ushbu maqolada o‘quvchilar bilimini baholash bo‘yicha PISA va PIRLS xalqaro dasturlaridan foydalanish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matn mazmunini obrazga kirib ifodalash, matnda aks etgan voqelikni taxlil qilish masalalari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** strategiya, baholash dasturi, matn, savodxonlik, ko‘nikma, kontekst.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari xalqaro baholash dasturi asosida o‘qish va matnni tushunishi bilan birga matn muallifi tomonidan g‘yalarni o‘z g‘oyasi bilan bog‘lab, muallifning pozitsiyasiga betaraf qoladi, uni inkor etadi yoki qo‘shimcha tasdiqlarni topadi. O‘quvchi mualliflik g‘oyalarini boshqa manbalardan olingan g‘oyalar va ma’lumotlar bilan taqqoslaydi. Matnning rasmiy elementlarini baholash, ya’ni uning tuzilishi, o‘quvchi umumiyligi va janr xususiyatlari, fikrlar, histuyg‘ular, faktlar haqida yozma xabarlarni taqdim etishning verbal va noverbal usullari haqida o‘z bilimiga tayanadi. O‘quvchilar muallif uslubining afzalliklari va kamchiliklarini ta’kidlashlari mumkin. Bundan tashqari, o‘quvchilar axborotni tahlil qilishda ularning qobiliyatlarini ishga solish muhim ekanligini yodda tutish kerak.

Tadqiqotlarga 4-sinf o‘quvchilarining tanlanishi shu bilan e’tiborliki, aynan o‘qishning to‘rtinchisi yilda o‘quvchilar o‘qishning yuqori darajasiga ega bo‘lishi, ularning keyingi ta’limda bilimni egallash qobiliyatini shakllantirish va shu orqali hozirgi zamonga muvaffaqiyatli moslashuviga yordam beradi. Tadqiqot jarayonida darsda o‘quvchilar tomonidan eng ko‘p qo‘llaniladigan o‘qishning quyidagi ikki turi o‘rganiladi:

1. Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadidagi o‘qish.
2. Mazmunni tushunish va amalda foydalanish maqsadidagi o‘qish.

Badiiy va ilmiy-ommabop matnlarni o‘qishda o‘qish ko‘nikmalarining quyidagi to‘rt guruhi baholanadi:

1. Aniq ko‘rinishda berilgan ma’lumotni topa olish.
2. Xulosalarni shakllantirish.
3. Ma’lumotlarni umumlashtira olish.
4. Matnning mazmuni, til xususiyati, tuzilishini tahlil qilish va baholay olish.

Demak, bundan ko‘rinib turubdiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari matn mazmunini obrazlarga kirish orqali ifodalash, matnda aks etgan voqelikni, unda ishtiroy etayotgan personajlar fikrini bayonidan boshqa o‘z fikr-mulohazalarini suhbat mavzusiga qo‘shimcha tariqasida bayon etishi, o‘quvchini so‘z boyligini ortishiga yordam beradi. Ushbu topshiriqlardan o‘quv jarayonida to‘g‘ri foydalanilsa, o‘zlashtirishda hamda o‘qish va matnni tushunishda ijobjiy natijalarga erishish imkonini yaratadi.

PISA dasturida esa, matematikani real muammoni hal etishga, o‘quvchilarni matematik ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, PISA topshiriqlari rejalashtirish va tahlil qilishning asosiy jihatni hisoblanadi. Bu jihat esa matematik savodxonlik ta’rifi bilan chambarchas bog‘liq.

Shaxsiy xayot bilan bog‘liq kontekstlar odatda o‘quvchi, oilasi, do‘stlari va tengdoshlarining kundalik hayotiy bilan aloqadorlikda bo‘ladi (o‘rtoqlari bilan muloqot, sport mashg‘ulotlari, do‘konlarda savdo-sotiq, dam olish, uydagi yumushlar).

-Faoliyatga doir kontekstlarda berilgan masalalarda maktab hayoti yoki mehnat faoliyat bilan bog‘liq bo‘ladi. Ular o‘lchash, narxni hisoblash, qurilish uchun materiallarni harid qilish (masalan, maktab matematika xonasiga kitob javonini yasash uchun), buyurtma bo‘yicha to‘lash, muayan ishni bajarish (“Tomchilar tezligi” topshiriqlari);

-Ijtimoiy hayotga oid kontekstlar jamiyatning (mahalliy, milliy yoki umuminsoniy) hayoti bilan bog‘liq. Maxalliy jamiyat bilan bog‘liq vaziyatlar o‘quvchi atrofida vujudga kelgan muammolarga (masalan, valyuta ayrboshlash, bankka omonat qo‘yish) bag‘ishlangan. Kengroq jamiyatda vujudga kelgan muammolar sifatida saylov tizimlari va saylov natijalari bilan bog‘liq



muammolarga, transport, hukumat qarorlari, demografik muammolar, milliy statistika va iqtisodiyot masalalari qaralishi mumkin (“Rok –kontsert” topshirig‘i); - Ilmiy faoliyatga oid kontekstlar odatda matematikani fan va texnologiyaga, fizik hodisalarga bag‘ishlangan (masalan, mavjud statistik ma’lumotlar asosida zilzila ro‘y berish-bermasligi to‘g‘risida hulosa chiqarish)<sup>13</sup>. Ushbu kontekstlarda ob-havo yoki iqlim, ekologiya va tibbiyot koinot, genetika muammolar qaralishi mumkin. Ularda nazariy savollar (masalan, aholining turli taqsimotlari) yoki bevosita real hayotga bog‘liq bo‘lmanan sof matematik masalalar (masalan, uchburchakning ikki tomoni berilganda uchinchi tomonini topish, metapredmet ko‘nikmalar, kognitiv kompetentsiyalar).

Shuni ta’kidlash lozimki, PISA tadqiqotida topshiriqlar kontekstida har bir topshiriqqa 1 dan 3 gacha savol taklif qilinadi. Ularga javob berish uchun berilgan vaziyatga oid ma’lumotlardan foydalanishi lozim. Shuning uchun bunday topshiriqni to‘g‘ri bajarish uchun nafaqat fanga oid ko‘nikmalardan, balkim o‘quvchilarning matn bilan ishlash va ma’noli o‘qish strategiyasidan foydalanishiga bog‘liq bo’ladi. Bunga qo‘yidagi faoliyat turlari kiradi:

- matnni to‘liq va tanqidiy tushunishni talab qiladigan o‘quv va o‘quv-amaliy masalalarni yechish;

- masala shartlarini esda tutish;

- taklif etilgan vaziyat doirasida yechimni topishda va talqin qilishda shartlarning bajarilishini nazorat qilish;

- aniq muammo kontekstida turli ko‘rinishlarda berilan ma’lumotlar (mant, jadval, ustunli va doiraviy diagrammalar, chizmalar) bilan ishlash. Bundan tashqari, matematik savodxonlikni muvaffaqiyatlari namoyish qilish, matematikani o‘qitishda rivojlantiriladigan mantiqiy va algoritmik xarakterdagи universal kognitiv kompetentsiyalarga bog‘liq. Shundan kelib chiqib, quyidagi jadvalda funktsional savodxonlikni shakllantirishning pedagogik shartlari aks ettirilgan. (qarang 1-jadval)

Mazmunli	Texnologik	Tashkiliy
O‘z-o‘zini bilishga, shaxsning o‘zini o‘zi rivojlantirishga kompetentsiyaga asoslangan yondashuv asosida yo‘naltirilganligini hisobga olgan holda, o‘quv predmeti mazmunini qurishni ta’minalashga yo‘naltirish, uni amalga oshirish fanning asosiy tarkibiy qismi-mavzuni rivojlantirishga qaratilgan o‘quv vazifasi orqali amalga oshiriladi. odatda o‘quv vazifalarini, shuningdek, asosan amaliyotga yo‘naltirilgan bilimlarga (axborot, ilmiy tushunchalar, ko‘rsatmalar, jadvallar, grafikalar bilan ishlash ko‘nikmali, ma’lumotlarning talqini va xulosasi) asoslangan jamiyat bilan o‘zaro munosabatlar vazifalarini hal qilish qobiliyatini.	Maqsadni aniqlashda, o‘z harakatlarini rejalashtirishda va xabardorligini aniqlashda mustaqillikni boshlagan talabalarning mustaqil ishlarini tashkil qilish uchun o‘qituvchi tomonidan innovatsion o‘qitish texnologiyalaridan foydalanish (loyiha asosida o‘qitish texnologiyasi, modulli o‘qitish, ko‘p bosqichli o‘qitish texnologiyasi)	O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida sub’ekt-sub’ekt munosabatlarini o‘rnatishga asoslangan hamkorlikni tashkil yetish. O‘quvchilar yutuqlarini baholashning yangi shakllarini qo’llash (topshiriqlar, loyiha taqqdimotlari, munozaralarni tashkil yetish orqali funktsional savodxonlikni baholash)

### 1-jadval. Funktsional savodxonlikni shakllantirishning pedagogik shartlari

Ushbu jadvalning maqsadi, mazmunli, texnologik va tashkiliy darajadagi ustuvorliklarni aniqlashdir. O‘quvchilarning funktsional savodxonligini rivojlantirishning besh yillik rejasi “harakatlar rejasi” deb nomlanadi. Bu esa, har bir o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘quv faoliyatining yakuniy natijalariga munosabatini qayta ko‘rib chiqishga va asosiy qoidalarni milliy miqyosda amalda qo’llash uchun aniq maqsadga intilishini belgilaydi. Har qanday sohasiga haqiqatan ham samarali mos keladigan o‘qitishning yangi formatini ta’minalash uchun ma’lum taktikalarni ishlab chiqish kerak. Bu yo‘nalishda birinchi navbatda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bilishga bo‘lgan qiziqishini va motivatsion kompetentsiyalarni rivojlantiradigan darajadagi qo’shimcha

1 Карсалова Е.В. Методические основы руководства читательской деятельностью школьников на уроках литературы в средних и старших классах: автореф. дис. ... д-ра пед. наук. – М., 1991. – С.41.



vazifalarni ishlab chiqishni taqozo etadi.

Yuqoridagi berilgan fikrlar shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni aks ettiradi, har bir o‘quvchilarning bilim, malaka va ko‘nikmalarini egallashlarigina emas, balki uning rivojlanish individual xususiyatlarini hisobga olgandagina unumli, ijobiy natijalarga olib keladi. Demak, agar o‘quv jarayoni to’la takrorlanuvchan, alohida ko‘rinishlarga bo‘linsa, o‘qituvchining vazifasi oldindan tuzilgan (o‘zi tuzgan bo‘lishi shart emas) material bilan o‘qishni tashkil etishda tashkilotchi va maslahatchi rolini ijro etishdan iborat bo‘lib qoladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Карсалова Е.В. Методические основы руководства читательской деятельностью школьников на уроках литературы в средних и старших классах: автореф. дис. ... д-ра пед. наук. – М., 1991. – С.41.
2. Radjiev A.B.va boshqalar. O‘quvchilar savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlar dasturi. Qo‘llanma. Toshkent – 2019. 62 bet



## TALABALARDA DIGITAL KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING AMALIY MEXANIZMI

Sheraliyev Odiljon Shuxratjon o‘g‘li,  
Qo‘qon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti  
+998916629393  
[odilxonqdpi@gmail.com](mailto:odilxonqdpi@gmail.com)

### Annotation

Ushbu maqolada talabalar digital kompetensiyani rivojlantirishning amaliy mexanizmi haqida bo‘lib, unda raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari, ta’limni axborotlashtirish sharoitida talabalarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish modeli, uning maqsadi, axborotlashtirish jarayonida joriy qilish kerak bo‘lgan pedagogik shart-sharoitlar, pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining digital kompetensiyasini rivojlanish darajasi va uning mazmuni, ularda raqamli kompetensiyasini rivojlantirishning mualliflik metodlari keltirilgan.

*Kalit so’zlari: digital kompetensiya, raqamli kompetensiya, raqamlashtirish, raqamli axborot, virtual hamkorlik, mediakompetensiya, butun hayot davomida o’qish, raqamli kontent, uzuksiz ta’lim, onlayn xavfsizlik.*

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida mavjud davlat ta’lim standartlari kompetensiyaviy yondashuvli didaktik tamoyil asosida shakllangan. Bu esa ko‘p jihatdan jamiyat va mehnat bozori talablari asosida “jamiyatning faol a’zolari”, “bo‘lg‘usi mutaxassislar”, “yetuk hayotiy-amaliy kompetensiyalarga ega shaxs”ni tayyorlashni maqsad qiladi. Mehnat bozori talablari ta’limning maqsadi sifatida shakllanib kelgan. Mehnat bozori bevosita ta’lim tizimiga kerakli mutaxassislariga “buyurtmachi” ekan, mehnat bozorida ta’lim tizimi mutaxassislariga bo‘lgan talablarni shakllantirib kelgan. Ta’lim tizimi esa mehnat bozoriga moslashgan holda ta’lim standartlariga mazkur talablarni singdirib kelgan. O‘quv jarayonining tashkil etilishi, o‘quv jarayonining mazmuni, qo‘llaniladigan metodlar va fanlar didaktikasi ham mehnat bozorida talab etilayotgan kompetensiyalarga moslashtirib kelinmoqda.

Bugungi kunda axborot va bilim jamiyat taraqqiyotining asosi bo‘lib, unga an‘anaviy tushunchalar va modellar qo‘llanilmaydi. L.V.Shmelkova



ta’kidlaganidek[8], raqamli iqtisodiyotga mos keladigan shaxsning eng muhim xususiyati bu raqamli texnologiyalarga egalik qilish va ularni kasbiy faoliyatda qo’llashdir. Raqamli texnologiyalar, bir tomondan, ishlab chiqarish hajmi va samaradorligini yanada oshirishga yordam beradi, boshqa tomondan, ular turli sohalarda individual yondashishga imkon beradi.

Oxirgi 15 yil ichida mobil qurilmalarning so‘nggi avlodlarining kirib kelishi, ulardan foydalangan holda Internet tarmog‘i orqali dunyoda bo‘layotgan voqeа va hodisalarni tezkor ravishda kuzatib borish hamda barcha turdagи materiallarni (video, audio, matn, 3D, 5D, 7D grafikalar) tezkorlik bilan qabul qilish, saqlash va uzatish imkoniyatlari paydo bo‘ldi hamda raqamli texnologiyalarning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Raqamli texnologiyalarning vujudga kelishi har kuni an‘anaviy o‘qitish usullarini almashtirmoqda. Auditoriyalar qanchalik shiddat bilan o‘zgarib borayotganligi sabab, eski usullarni unutib, raqamli texnologiyalarga asoslangan yangi o‘qitish usullarini joriy qilish maqsadga muvofiq. Raqamli texnologiyalardan foydalangan holda masofaviy o‘qitishni tashkil etish qog‘oz va daftarlar o‘rniga oddiy planshetlardan, murakkab dasturlar va raqamli jihozlardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Ta’lim oluvchilarining xalqaro miqyosda harakatlanishi, ma’lumotlarni izlash va saralash, istalgan joyda va vaqtda bilim olish va boshqa ko‘pgina afzalliklar raqamli texnologiyalarni ta’limda qo’llashni qulay ekanligidan dalolat beradi.

Raqamli texnologiyalar:


- 1) texnologiyalarning ta’lim olish va o‘qitishda ta’lim beruvchi va o‘rganuvchining faoliyatini yengillashtiradi;
- 2) ta’lim jarayonini qiziqarli qilishga yordam beradi;
- 3) baholash, axborotlarni saralash, boshqarish, ma’lumotlarni birlashtirish, muloqot qilish, ular va ota-onalar orasidagi aloqalarni rivojlantirish, o‘qituvchilararo hamkorlik, kasbiy rivojlanish kabi ma’lum maqsadlar uchun xizmat qiladi. Ta’lim sohasidagi bu tendensianing vazifasi nafaqat ta’lim beruvchi va talabalarning kompyuter savodxonligini oshirish va axborot texnologiyalaridan maqsadli foydalana olishi, balki o‘rganuvchilarni mustaqil va



ijodiy fikrlashga, o‘z fikrini namoyon qila olishga undaydi, ularning kommunikativ malakalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Tadqiqot ishi doirasida “Ta’limni axborotlashtirish sharoitida talabalarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish” modeli ishlab chiqildi.

### PEDAGOGIKA OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARINING DIGITAL KOMPETENTSIYASINI RIVOJLANTIRISH KOMPONENTLARI



Talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash

Talabalarda raqamli kompetentsiyani rivojlantirish mazmuni: RKni rivojlantiruvchi texnologiyalar; o’zining kognitiv, hissiy-emotsional faoliyatini kuzatish va baholash; maqsadli foydalanishning texnik va tashkiliy jihatlari; muloqot muntazamliligini ta‘minlash

(Raqamli) Pedagogik faoliyatga doir kompetentsiyalar: raqamlashtirilgan pedagogik faoliyat

Kasbiy-pedagogik rivojlanish kompetentsiyasi

Kollaborativ va kommunikativ kompetentsiyasi (pedagogik hamkorlik qilish layoqati), ‘Butun hayot davomida o‘qish’

“Raqamli fikrlash” va yechim topish kompetentsiyasi, raqamli mediakompetentsiya, virtual hamkorlik



## Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining digital kompetensiyasini rivojlantirish modeli.

Modelning maqsadi hozirgi jamiyatda raqamlashtirish, ta’limni zamonaviy innovatsion raqamli texnologiyalar vositasida rivojlanib borishi natijasida talabalarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirishdan iborat. Modelning maqsadi sifatida oliy ta’lim muassasasi talabalarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, raqamli ta’lim texnologiyalar didaktik imkoniyatlarini kasbiy-pedagogik faoliyat mazmuniga singdirilishi hamda o‘quv jarayoni, ma’naviy-ma’rifiy faoliyat hamda mustaqil ta’lim sharoitida talabalarning raqamli texnologiyalardan maqsadli va samarali foydalanishdan iborat.

Ilmiy-adabiyotlar tahlili asosida ta’lim sohasidagi raqamlashtirish jarayoni talabalarning o‘rganish hamda kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko‘rishi uchun quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni keltirib chiqishi aniqlashtirildi:

**1. Raqamli ta’lim resurslaridan foydalanish imkoniyati.** Ta’limning raqamlashtirish natijasida talabalar uchun ko‘p hajmdagi o‘quv materiallarini digital tarzda tez va oson o‘rganish imkoniyati yaratildi. Ta’lim resurslaridan foydalanishga bo‘lgan bunday keng imkoniyatlar qatoriga onlayn ta’lim platformalari, elektron ta’lim resurslari, raqamli kutubxonalar, onlayn kurslar va boshqalarni keltirish mumkin[2].

**2. O‘rganishning individuallashuvi.** Raqamli ta’lim texnologiyalari o‘rganishning individuallashuviga keng imkoniyat yaratib beradi. Adaptiv ta’lim platformalari talabaning o‘rganish tezligi darajasiga muvofiq ravishda mustaqil ta’lim olish imkoniyatini beradi. Talaba o‘zining o‘zlashtirishini nazorat qiladi. Shu bilan birga topshiriqlarni bir necha marta topshirishi va bu orqali bilimlarini mustahkamlashi mumkin bo’ladi.[7]

**3. Talabalarning kreativ va innovativ faoliyatga tayyorgarligini qo‘llab-quvvatlash.** Raqamlashtirish talabalarni kreativ bo‘lishini, faoliyatning har bir elementlariga o‘ziga xos yondoshuv bilan yechim topishi lozim bo‘ladi. Ta’limni



raqamlashtirish jarayonida keng qo'llaniladigan videolarga ishlov berish, grafik dizayn dasturlari yoki 3D printerlaridan foydalanish kreativ va innovativ faoliyatning tarkibiy qismi hisoblanadi.[6]

**4. Virtual hamkorlik.** Virtual kommunikatsiya vositalari geografik joylashuvidan qat'iy nazar talabalarning hamkorlik qilishi, muloqot qilishi va shu orqali hamkorlikda turli loyihalarni amalga oshirishga imkoniyat yaratib beradi. Virtual hamkorlik kasbiy-pedagogik faoliyatning ham ajralmas qismi bo'lib bormoqda. Shuning uchun talabalarda virtual hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha turli viloyatlarda joylashgan pedagogika institutlari bilan hamkorlikdagi mashg'ulotlar, loyihalar ilmiy-pedagogik ahamiyatga ega.[5]

**5. Raqamli mediakompetensiya.** Raqamlashtirish yuqori darajadagi mediakompetensiyanı rivojlanganligini taqozo etadi. Bu orqali talabalar axborotlarni tanqidiy baholash, soxta xabarlarni ajrata olish, raqamlashib borayotgan hayotning etik jihatlarini anglash xususiyatiga ega bo'ladi. Raqamli mediakompetensiya raqamli mediavositalari bilan mas'uliyatli va ongli munosabatda bo'lishini ta'minlaydi.[1]

**6. Raqamlashtirilgan kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorgarlik.** Raqamlashtitilib borilayotgan ta'lim tizimi talabalarning bo'lajak kasbiy-pedagogik faoliyatida ko'plab raqamli ta'lim texnologiyalari va vositalari bilan ishslashni taqozo etadi. Oliy ta'lim muassasalarida ham talabalarning bo'lajak faoliyat ko'rsatadigan ish o'rinaliga qo'yiladigan talablarni tizimli o'rganib borishni taqozo etadi. Hozirgi kunda, umumta'lim maktablarida yangi innovatsion raqamli texnologiyalarning keng tadbiq qilinishi mazkur ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatadigan o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini ekspert darajada rivojlanganligini taqozo etadi.[3]

**7. Butun hayot davomida o'qish.** Raqamlashtirish “butun hayot davomida o'qish” konsepsiyasiga ko'ra kasbiy zarurat hisoblanadi. Talabalar butun hayot davomida raqamli kompetensiyalarini takomillashtirib, rivojlantirib borishi, tezkorlik bilan o'zgarib borayotgan texnologiyalarga mutanosib ravishda kasbiy-pedagogik faoliyati mazmuniga tadbiq etib borishi lozim bo'ladi.[4]



Tadqiqot ishi doirasida ilmiy-adabiyotlar tahlili asosida pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining raqamli kompetensiyasini rivojlanish darajasi va uning mazmuni shakllantirildi:

### **2.3.1-jadval**

#### **PEDAGOGIKA OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARINING DIGITAL KOMPETENSIYASINI RIVOJLANISH DARAJASI VA UNING MAZMUNI**

Talabalarda raqamli kompetensiyalarning rivojlanish darajasi va tarkibiy qismi	
Rivojlanish darajasi	Kompetensiyalar mazmuni
Raqamlashtirish asoslari va foydalanish	<ul style="list-style-type: none"> <li>0.1. Raqamlashtirish mohiyatini tushunish</li> <li>0.2. Raqamli vositalardan foydala olish</li> <li>0.3. Raqamli kontentlarning inklyuziv shakllaridan foydalana olishi</li> </ul>
Axborot va ma'lumotlar bilan ishlash	<ul style="list-style-type: none"> <li>1.1. Axborot, ma'lumot va raqamli kontentlarni qidirish va filtrlash</li> <li>1.2. Axborot, ma'lumot va raqamli kontentlarni tanqidiy baholay olish</li> <li>1.3. Axborot, ma'lumot va raqamli kontentni boshqarish</li> </ul>
Murojaat va muloqot qilish	<ul style="list-style-type: none"> <li>2.1. Raqamli texnologiyalar orqali muloqot qilish</li> <li>2.2. Raqamli texnologiyalardan ma'lumot va axborotlar to'plash maqsadida foydalanish, shuningdek almashish</li> <li>2.3. Raqamli texnologiyalardan ijtimoiy muloqot uchun maqsadli foydalan olish</li> <li>2.4. Raqamli vositalar yordamida kundalik-amaliy faoliyatda foydalana olish</li> <li>2.5. Raqamlashtirish sharoitida zaruriy muloqot qoidalarini bilishi va qo'llay olishi</li> <li>2.6. Raqamli identitetlikni shakllanganligi</li> </ul>
Raqamli kontentni shakllantirish	<ul style="list-style-type: none"> <li>3.1. Raqamli kontentni tahlil qila olishi</li> <li>3.2. Raqamli kontentlarni birlashtira olishi va integratsiyasi</li> </ul>



<b>Xavfsizlik</b>	3.3. Raqamli texnologiyalarga doir shartnoma shartlariga rivoja qilishi
	3.4. Jarayonlarni dasturlash va avtomatlashtira olishi
	4.1. Raqamli vositalardan xavfsiz foydalan olishi
	4.2. Shaxsiy ma'lumotlar va konfidentsiallikni himoya qila olishst
	4.3. Raqamli texnologiyalardan foydalanishda ergonomik talablar va mas'uliyatni bilishlik
<b>Muammolarni hal qilish va uzlucksiz ta'lim</b>	4.4. Kiberxavfsizlik
	4.5. Atrof-muhitni himoya qilish (raqamli texnologiyalarda keng qo'llaniladigan batareyka, litiy)
	5.1. Texnik muammolarni hal qilish
	5.2. Raqamli texnologiya, vosita va qurilmalardan ergonomik talablarga muvofiq foydalanish
	5.3. Raqamli texnologiyalardan ijoydiy foydalanish
	5.4. Raqamli savodxonlik va madaniyat

Izlanishlar davomida pedagogika oliy ta'lim muassasasi talabalarining raqamli kompetensiyasini rivojlantirish mualliflik metodlari shakllantirildi va tajriba-sinob obyektlarida tajriba-sinov ishlarida qo'llanildi. Xususan:

**1. Flipped Classroom metodi.** Bu metodda talabalar navbatdagi dars mavzusiga doir raqamli ta'lim resurslarini oldindan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Rejadagi o'quv mashg'uloti faol diskussiya uchun foydalaniladi. Bu metodning afzallik tomoni talabalar o'zlarining o'zlashtirish darajasida o'r ganishi mumkin bo'ladi. O'qituvchi esa o'quv mashg'ulotini bahs-munozaralarga boy qilib o'tkazishi metodning afzalligi hisoblanadi.

Flipped Classroom metodi an'anaviy darslardan farqli ravishda talabalarni faol, o'r ganish jarayonini loyihalovchi sifatida ko'radi. O'qituvchi esa ko'proq tayyorgarlik jarayoni bilan band bo'lishi hamda o'r ganilgan mavzu bo'yicha bahs-



munozarani mazmun jihatdan keng qamrovli bo‘lishi uchun turli savollar, muammoli vaziyatlar va mavzuga doir yamgi ma’lumotlar va dalillarni tayyorlashi lozim bo‘ladi.

Tadqiqot ishi doirasida mazkur metoddan tajriba-sinov obyektlarida foydalanildi. O‘qituvchilar tomonidan dars mavzusiga doir videomateriallarni tayyorlash va oliv ta’lim muassasi elektron ta’lim platformalariga yuklandi. talabalar uchun berilgan ma’lum vaqt mustaqil o‘rganish uchun berildi. An’anaviy dars mashg‘ulotiga nisbatan mazkur metodning samradorligi talabalar hamda o‘qituvchilar tomonidan e’tirof etildi.

**2. WebQuests metodi:** “WebQuest” atamasini erkin tarjima qilganda “mo‘jizalar izlarini internetda qidirish” ma’nosini beradi. Mazkur metod talabalarni tizimli ravishda internet tadqiqot olib borishini maqsad qiladi. Bunda asosan raqamli manbalar asosida ma’lum bir sohaga doir savolga internet-tadqiqot o‘tkazadi. Bu metod orqali talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyasi hamda raqamli manbalarni tanqidiy baholash ko‘nikmalari rivojlanadi. O‘qituvchi tomonidan mazkur metod foydalanganda mavzuning xususiyati hisobga olinishi lozim bo‘ladi.

Mazkur metoddan talabalar kichik guruhlari uchun ham foydalanish mumkin bo‘ladi. WebQuests metodi quyidagicha foydalanish tavsiya etiladi. Talabalarga o‘qituvchi tomonidan mavzuga doir topshiriq beriladi. Topshiriq imkon qadar babs-munozaralar keltirib chiqivchi va ilmiy jihatdan ham bir-biriga qarama qarshi fikrlar mavjud bo‘lgan mavzu tanlanadi. O‘qituvchi tomonidan internet manbalar beriladi. Shuningdek, talabalarga berilgan internet manbalardan tashqari boshqa manbalar, kitob yoki jurnallardan foydalanishi umkin bo‘ladi. Mazkur metoddan foydalanganda o‘qituvchi tomonidan tadqiq qilinayotgan ilmiy ma’lumotning aniqligi, dalillarga asoslanganligi, foydalanilayotgan manbalarning ishonchli ekanligi bo‘yicha ko‘rsatmalar berilishi lozim. Metod orqali talabalarning o‘zaro muloqoti, ilmiy tadqiqot bo‘yicha strategik yonduvi rivojlantirilsa, boshqa tomonidan internet resurslaridan maqsadli foydalanishi yuzasidan tadqiqotchilik kompetensiyalari rivojlanadi. Topshiriq o‘z navbatida taqdimotni ham o‘z ichiga



olib, talabalar o‘z natijalarini taqdim qilishadi.

### **Topshiriq:**

1. Multiple-Choice topshiriqlarining kamchiliklarini quyidagi internet manbalari orqali tadqiq qiling.

<https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/01421590400013495>

<https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S132276960860478>

3

<https://journals.aps.org/prper/abstract/10.1103/PhysRevSTPER.5.020103>

<https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S147159530500006>

5

2. Tadqiq qilish jarayonida mazkur topshiriqlarning 5 ta kamchiligin keltiring.

3. Keltirilgan kamchiliklarning har biri uchun internet manba keltiring.

4. Keltirilgan kamchiliklarga bildirilgan e’trozli ilmiy ma’lumotlarni internet orqali toping.

5. To‘plangan ma’lumotlar asosida o‘zingizning (guruhiningizning) multiple-choice topshirqlari bo‘yicha shaxsiy tanqidiy fikr-mulohazalaringizni umumlashtiring.

6. Topshiriq bo‘yicha 5 ta slayddan iborat Power Point taqdimotini tayyorlang.

Tadqiqot ishi doirasida WebQuests metodidan foydalanildi va o‘qituvchi hamda talabalar tomonidan katta qiziqish namoyish etildi.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida digital kompetensiyalarni rivojlantirishning yana bir texnologiyasi sifatida raqamli loyiha ishi hisoblanadi.

**3. Raqamli loyiha ishi.** Bunda talabalar kichik guruhlarga taqsimlanadi raqamli loyihani amalga oshiriladi. Topshiriq sifatida multimedial presentatsiya tayyoshlash, video tayyorlash, web sahifa ishlab chiqish yoki blog ishlab chiqish.

### **Raqamli loyiha ishi uchun topshiriq.**

Maktab talabalarining ota-onalariga farzandlari bilan uy vazifalarini tayyorlash bo‘yicha elektron tavsiyanoma ishlab chiqing.

Loyiha ishida quyidagi vazifalarni amalga oshiring:

1. Loyiha g‘oyasiga qiziquvchi talabalar bilan kichik guruh shakllantiring

2. Loyihani pedagogik amaliyatga tadbiq etish yuzasidan nazariy kontseptual jihatlarini ishlab chiqing.

3. Loyihani amalga oshirish uchun raqamli texnologiyalar va ularning loyihani amalga oshirishdagi ahamiyatini belgilang.

4. Loyiha yakunida ishlab chiqiladigan „raqamli mahsulot“ning dizaynnini, mazmunini, tadbiq etishga qulayligi, pedagogik ta’siri bo‘yicha baholang.



4. Talabalarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirishda **online-kollaboratsiya** metodi ham samarali hisoblanadi. Onlayn-kollaboratsiya uchun mo‘ljallangan dasturiy ta’milot hisoblangan Google Docs va Microsoft Teams yordamida kichik guruhlarda ishlash faoliyatini tashkil qilish mumkin. Bunda kichik guruhdagi talabalar bitta umumiy faylda hamkorlik qilishi, o‘z g‘oyalarini almashishi va bir-birini fikriga munosabat bildirishi mumkin.

#### **Online-kollaboratsiyaga doir topshiriq.**

Misrosoft Teams yordamida “Pedagogik kuzatish” mavzusida umumiy muzokara o‘tkazing. Muzokarada har bir talaba quyidagi 3 ta vazifa bo‘yicha (a) o‘z munosabati hamda (b) boshqalar fikriga kamida 3 ta munosabatni shakllantiring.

1. Pedagogik kuzatishning maqsadi, vazifasi hamda zarurati nimalardan iborat?
2. Pedagogik kuzatishning ijobiy jihatlari.
3. Pedagogik kuzatishning salbiy jihatlari.

Topshiriq yakunida 2 talaba yakuniy hisobot shakllantiradi. Yakuniy hisobot mazkur muzokara bo‘yicha xulosalar, taklif va mulohazalarni o‘z ichiga oladi.

5. Talabalarda raqamli kompetensiyani rivojlantirish orqali ularni bo‘lg‘usi kasbiy-pedagogik, ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashda raqamli ta’lim texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari katta. **Raqamli tadqiqot** metodi talabalarning tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashda samarali hisoblanadi. Quyida mazkur metodga doir topshiriq namunasi keltirilgan.



### **Raqamli tadqiqotga doir topshiriq namunasi:**

Google schoolar qidiruv xizmatidan “Talabalarning ijtimoiy intellektini rivojlantirish” mazusida tadqiqot o’tkazing va quyidagi vazifalarni bajaring:

1. Mavzu bo‘yicha qidiruv so‘zlarini shakllantiring.
2. Tadqiqot bo‘yicha qidiruv so‘zlariga asoslangan holda natijalarini statistik tahlil qiling.
3. Raqamli tadqiqot o’tkazishda yuzaga keladigan soxta iqtiboslar, akademik halollik bo‘yicha o‘z munosabatingizni shakllantiring.

6. Tadqiqot doirasida shakllantirilgan **“Ma’lumotlarni himoya qilish va onlayn xavfsizlik” mualliflik topshirig‘i** hisoblanadi. Ta’limni axborotlashtirish sharoitida ta’lim oluvchilarga tegishli ma’lumotlarni himoya qilish va onlayn xavflilik ularning raqamli kompetensiyalarining muhim ajralmas qismi hisoblanadi. Talabalarning ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha sozlash dasturlaridan unumli foydalanish hamda kibertahdidlarni oldini olish yuzasidan amaliy tajribalarga ega bo‘lishi, bu esa o‘quv jarayoni mazmuniga singdirilishi lozim bo‘ladi.

### **Ma’lumotlarni himoya qilish va onlayn xavfsizlikka doir topshiriq:**

1. Xavfsiz parol tushunchasini izohlang.
2. Xavfsiz parol shakllantirish bo‘yicha yo‘riqnomani shakllantiring.
3. Xavfsiz parol bo‘yicha 20 minutga mo‘ljallangan dars mashg‘uloti rejasini tuzib chiqing.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarining digital kompetensiyasini rivojlantirishda bo‘lajak kasbiy-pedagogik faoliyati hamda shu faoliyatga qo‘yilayotgan zamonaviy talablarni inobatga olgan holda raqamli ta’lim texnologiyalarining didaktik imkoniyatlarini tahlil qilish asosida yangi texnologiyalar, metodlar, yondashuvlar joriy qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:**

1. Ala-Mutka, Kirsti, Yves Punie, and Christine Redecker. “Digital competence for lifelong learning”. Institute for Prospective Technological Studies (IPTS), European Commission, Joint Research Centre. Technical Note: JRC 48708 (2008): 271-282.
2. Carretero, Stephanie, Riina Vuorikari, and Yves Punie. “DigComp 2.1: The



- digital competence framework for citizens”. (2017).
3. Ilomäki, Liisa, Anna Kantosalo, and Minna Lakkala. “What is digital competence?”. Linked portal (2011).
  4. Pettersson, Fanny. “On the issues of digital competence in educational contexts—a review of literature”. Education and information technologies 23.3 (2018): 1005-1021.
  5. Redecker, Christine, and Yves Punie. “Digital Competence of Educators”. Edited by Yves Punie (2017).
  6. Spante, Maria, et al. “Digital competence and digital literacy in higher education research: Systematic review of concept use”. Cogent Education 5.1 (2018): 1519143.
  7. Zhao, Yu, Ana María Pinto Llorente, and María Cruz Sánchez Gómez. “Digital competence in higher education research: A systematic literature review”. Computers & Education 168 (2021): 104212.
  8. Исследование российского рынка онлайн-образования и образовательных технологий [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://edmarket.digital/>.

# **ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 10-ҚИСМ**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фарруҳ Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.10.2023

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000